

QASHQADARYO VILOYATIDA BOLALARDA TUG‘MA VA IRSIY KASALLIKLARNI BARVAQT ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLISH TO‘G‘RISIDA

Nabiyeva Sh.G.

O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot va Farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi
Qashqadaryo viloyat xududiy bo‘lim boshlig‘i

Kalit so‘zlar: Fenilketonuriya, prenatal, gipotireoz, Daun.

Dolzarlighi. Mamlakatimizda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. Bolalarning irsiy va tug‘ma kasalliklar bilan tug‘ilishining oldini olish maqsadida tashkil etilgan respublika va hududiy skrining markazlari, shuningdek, tug‘ruqqa yordam beruvchi va pediatriya muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Tug‘ma va irsiy kasalliklarga chalingan bolalar tug‘ilishining oldini olish masalalarida ko‘pchilik aholining e‘tiboridan chetda qolayotganligi, oila qurishda hisobga olinmayotgan va oqibatda oilaga, jamiyatga ham ma‘naviy, ham moddiy ziyon yetkazayotgan qarindoshlik nikohlari dolzarb muammoligicha qolmoqda. Yaqin qarindoshlardan tug‘ilgan farzandlarda salbiy sifatning nasldan-naslga o‘tish xavfi ikki, uch barobar ortiq bo‘ladi. Davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri jismonan, ruhan sog‘lom avlodni dunyoga keltirish bo‘lib, buning ijrosini ta‘minlashda har bir ota-onalar ko‘proq mas‘uldir. O‘zbekiston Respublikasining “Oila” kodeksida yaqin qarindoshlar nikohining taqiqlanishi ko‘rsatib berilgan, darhaqiqat, onalar va bolalar sog‘lig‘ini har tomonlama mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, homilador ayollar va chaqaloqlarda tug‘ma nuqsonlarni barvaqt aniqlash, davlat tizimini yanada rivojlantirish, bolalarda nogironlikni kamaytirish hamda mustahkam oilani barpo etish maqsadida, 1998yilda viloyat ona va bola skrining markazi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25dekabrda PQ-3440-sonli “2018-2022 yillar davrida bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash” Davlat dasturi to‘g‘risida, xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 sentabr PQ-4440-sonli «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari qabul qilindi. Maqsad oilada sog‘lom muhitni yaratish orqali nasl barkamolligiga erishishdir.

Ishning maqsadi: Qashqadaryo viloyatida xomilador ayollar o‘rtasida prenatal (tug‘ruqgacha) tibbiy tekshiruvlar homilada tug‘ma va irsiy kasalliklarni oldini olish hamda barvaqt aniqlashga yo‘naltirilgan tekshiruvlari va chaqaloqlar o‘rtasida neonatal skrining tekshiruvlari bo‘yicha asosiy statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish.

Materiallari va uslublari: Qashqadaryo viloyat Ona va bola skrining markazining 2021 yildan 2023yilga qadar bo‘lgan ma‘lumotlari asosida viloyatda prenatal va neonatal skrining tekshiruvlarining statistik usulda tahlil qilish.

Oldingi natijalar va ularni tahlili: Qashqadaryo viloyati Ona va bola skrining markazining 2021 yildan 2023yilga qadar bo‘lgan ma‘lumotlariga ko‘ra viloyatda prenatal va neonatal skrining tekshiruvlari jaryonida aniqlangan tug‘ma nuqsonlar bilan chaqaloqlar soni quyidagicha:

Natija: Qashqadaryo viloyati Ona va bola skrining markazining mutaxassislari tomonidan 2021 yildan 2023 yilga qadar jami 74 216 nafar xomilador ayollarni 14–20 haftasida ultratovush tekshiruvidan (UTT) va 14 868 nafar xomilador ayollarni qon zardobidan AFP/XG tekshiruvlari o‘tkazildi. UTTdan 2021 yildan 2023 yilga qadar jami 1073 nafar tug‘ma nuqsonli xomila aniqlandi, shulardan akusherlik patologiyasi bilan tug‘ma nuqsonlar 337 nafarni tashkil etgan va aniqlangan jami 1073 nafar rivojlanishida tug‘ma nuqsonlari bo‘lgan xomilani sun‘iy to‘xtatilib, xomiladorlik davrida

rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bola tug'ilishining oldini olish imkonini berdi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 2021 yildan 2023 yilga qadar jami 208155 nafari tug'ma va irsiy kasalliklar yuzasidan neonatal skrining va Fenilketonuriya tekshiruvlaridan o'tkazildi. Tug'ma gipotireoz kasalligi bilan 2021yildan 2023yilga qadar jami yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 34 nafari, Fenilketonuriya kasalligi bilan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 8 nafari aniqlandi, hamda ularni dispanser nazoratiga olindi. Shuningdek ularga , rivojlanishning tug'ma nuqsonlarini bartaraf etish yuzasidan malakali tibbiy yordam ko'rsatildi. Viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo hududiy filiali va tug'ruqkomplekslari tomonidan 2021 yildan 2023yillarga qadar 419 nafar chaqaloqlarni tug'ma nuqson bilan, shundan qarindoshlik nikohlaridan 102 nafar chaqaloqlarni tug'ma nusonlar bilan tug'ilganligi haqida xabarnomalari viloyat ona va bola skrining markaziga yuborilgan.

Tahlillar natijasida: 2021 yilga nisbatan 2023 yilga kelib UTTdan o'tkazilgan xomilador ayollarda 13 nafarga, ya'ni 5,6 foizga ko'p tug'ma nuqsonli xomila aniqlandi va bu rivojlanishida tug'ma nuqsonlar bo'lgan bola tug'ilishining oldini olish imkonini berdi. 2021 yilga nisbatan 2023 yilga kelib tug'ma va irsiy kasalliklar yuzasidan o'tkazilgan neonatal skrining va Fenilketonuriya kasalligiga tekshiruvlaridan 49520 nafarga ya'ni 56,5 foizga kam yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'tkazildi. Tekshiruvlar natijasida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tug'ma gipotireoz kasalligi bilan 2021 yilga nisbatan 2023 yilga kelib 2 nafarga ko'payganligi aniqlandi va Fenilketonuriya kasalligi bilan 3 nafarga kamayganligi aniqlandi va ular sog'lomlashtirish uchun dispanser nazoratiga olindi. Viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qashqadaryo hududiy filiali va tug'ruqkomplekslari tomonidan 2018 yildan 2023yillarga qadar 419 nafar chaqaloqlarni tug'ma nuqson bilan, shundan qarindoshlik nikohlari bilan 102nafar chaqaloqlarni tug'ma nusonlar bilan tug'ilganligi haqida xabarnomalar viloyat ona va bola skrining markaziga yuborilganligi aniqlandi, bu esa 2021 yilga nisbatan 2023 yilga kelib jami tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilgan chaqaloqlar 10 nafarga -7,6 foizga kamayganligi va qarindoshlik nikohlaridan chaqaloqlarni tug'ma nusonlar bilan tug'ilganligi 9 nafarga -7,6foizga kamayganligi aniqlandi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda aniqlangan tug'ma nuqsonlar va qarindoshlik nikohlaridan aniqlangan tug'ma nuqsonlar Qashqadaryo viloyatining barcha shaxar va tumanlarida aniqlangan.

Tug'ma nuqsonlar bilan aniqlangan kasalliklar strukturasi: jami 2021 yildan 2023 yilga qadar 1-o'rinda tanglay va labning tirtiqligi nuqsoni bilan jami 94 nafarda, 25,3 foizni; 2-o'rinda reduksion nuqsonlar bilan(qo'l va oyoq anomaliyalari)- jami 55 nafar, 12,1 foizni; 3-o'rinda Daun kasalligi bilan 45 nafarda, 10,3 foizni; 4-o'rinda birqancha tug'ma nuqsonlar bilan 22 nafarda 5,9 foizni; 5- o'rinda Spinabifida bilan 16

nafarda 4,3 foizni; 6-o'rinda polidaktiliya bilan 13nafarda 3,5 foizni, mikrotiya bilan 12nafarda 3,2 foizni, 7-o'rinda tug'ma yurak nuqsoni bilan 10-nafarda 2,6 foizni, anus atreziyasi 9 nafarda 2,4 foizni; 8-o'rinda gidrotsefaliya 5 nafarda 1,4 foizni, gipospadiya bilan 5 nafarda 1,3 foizni; 9- o'rinda boshqa nuqsonlar bilan 120 nafarda 19,6 foizni, tashkil etdi.

Shundan qarindoshlik nikohlaridan tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilganlarni kasalliklar strukturasi: 1-o'rinda Labning tirtiqligi va tanglayni tirtiqligi bilan 17-nafarda 15,7 foizni, 2-o'rinda Reduksion nuqsonlar bilan(qo'l va oyoq anomaliyalari) jami 9-nafarda 8,3 foizni; 3-o'rinda Daun kasalligi bilan 8 nafarda 7,4 foizni; 4-o'rinda birqancha tug'ma nuqsonlar bilan 6 nafarda 5,5 foizni; 5- o'rinda Mikrotiya bilan 5 nafarda 4,6 foizni; 6-o'rinda Qizilo'ngach atreziyasi bilan 4-nafarda 3,7 foizni; 7-o'rinda Tug'ma yurak nuqsoni 2-nafarda, Spinabifida 2-nafarda; Anus atreziyasi 2-nafarda, Kindik churrasi bilan 2 nafarda 1,8 foizni va 8-o'rinda Ensefalotselli 1-nafarda;

Gipospadiya 1- nafarda, Gidrotsefaliya 1 nafarda-0,9 foizni; hamda boshqa nuqsonlar bilan 82 nafarda 75,9 foizni, tashkil etdi.

Xulosa: Qashqadaryo viloyatida oilada sog‘lom muhitni yaratish orqali nasl barkamolligiga erishish uchun, homilador ayollar va chaqaloqlarda tug‘ma nuqsonlar bilan, shuningdek qarindoshlik nikohlaridan aniqlanadigan tug‘ma nuqsonlarni barvaqt aniqlash xamda ularni oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga tadbiq etish lozim.

1. Foydalanilgan adabiyotlar

2. Franchini M, Lippi G, Manzato F, Vescovi PP, Targher G. Hemostatic abnormalities in endocrine and metabolic disorders. *Eur J Endocrinol* 2010;162(3):439–451
3. Gullu S, Sav H, Kamel N. Effects of levothyroxine treatment on biochemical and hemostasis parameters in patients with hypothyroidism. *Eur J Endocrinol* 2005; 152(3):355–361
4. Городецкая.В.,Кореневская.А. Влияниетиреоидногостатусанаинтенсивность стресс-реакции прихроническом стрессовом воздействии // *ВЕСТНИК ВГМУ*, 2010, ТОМ 9
5. Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o‘simlik birikmalaridan foydalanish.Xorazm Mamun Akademiyasi,2023.-14 b.
6. Rahmatullayev Y. Sh, Avliyoqulova M. B, Hakimova M. A, o‘zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o‘quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti.Xorazm Ma‘mun Akademiyasi- 2023.